

## ERTA YOSHDAGI BOLALARDA ME'DANING FUNKSIONAL BUZILISHLARI

*Temirov Murodjon Telmon o'gli  
Buxoro davlat tibbiyot instituti,  
Pediatriya kafedrasи magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada erta yoshdagi bolalarda me'daning funksional buzilishlari to'g'ri ma'lumotlar keltirilgan. Bolalarda funksional dispepsiya, aerofagiya va funktsional qusish kabi buzilishlar ko'rib chiqilgan. Dispepsiya suzi - (dus) - buzilishi, (pepsis) - hazm qilishning buzilishi ma'nosini anglatadi. Aerofagiya - bemorning ko'p miqdorda havoni yutishi, bu esa tez-tez kekirishga olib keladi. Qusish - oshqozondagi massani irodaga bo'yin sinmagan xolda tez tashlash, bunda oshqozonni nafakat sillik muskullari, balki ko'ndalang muskullar ham qisqaradi.

**Kalit so'zlar:** Hazm, dispepsiya, aerofagiya, quisis, oshqozon, funksiyonal, FGDS.

Xalqaro ekspertlar komissiyasi ma'lumotiga ko'ra gastroduodenal kasalliklar quyidagilarga bo'linadi:

- Funktsional qusish
- Aerofagiya
- Funktsional dispepsiya[1]

Hayotning birinchi yilidagi bolalarda ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari tarkibida funktsional buzilishlar etakchi o'rinni egallaydi (turli manbalarga ko'ra, 90-95%). Funktsional kasalliklar (yoki buzilishlar) - tekshiruvda anatomik, morfologik, metabolik yoki boshqa anormalliklarni aniqlay olmagan holatlar, bu bolada simptomlarni tushuntirishi mumkin. D. A. Drossmanning (1994) klassik ta'rifiga ko'ra, oshqozon-ichak traktining funktsional buzilishlari tizimli va biokimyoviy buzilishlarsiz oshqozon-ichak simptomlarining xilma-xil birikmasidir[8].

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda va yosh bolalarda oshqozon-ichak traktining funktsional buzilishlarini ko'p hollarda aniqlanadi. Yosh bolalarning yarmidan ko'vida oshqozon-ichak traktining funktsional buzilishlari og'ir namoyon bo'ladi[5].

**Funktsional dispepsiya.** Dispepsiya so'zi - (dis) - buzilishi, (pepsis) - hazm qilishning buzilishi ma'nosini anglatadi. Oshqozon dispepsiysi haqida gap ketganda, oshqozonning fermentativ funktsiyasi natijasida xlorid kislota va pepsin etishmovchiligi emas, birlamchi o'rinda og'riq sindromi va ovqat hazm qilish traktini yuqori bo'limlarida motorikani buzilishi tushuniladi. Oshqozon dispepsiysi - simptomi og'riq va epigastral soxada noxush sezgi. O'ng va chap qovurg'a ostidagi og'riq - dispepsiya sindromiga taaluqli emas. Nohush sezgi-bemor tomonidan og'riq

deb hisoblanmaydigan turli xil ko'rinishidagi: ovqatdan keyin og'irlik sezish, tez to'yib qolish, kekirish, ayrim hollarda quşish. Bollarda qaytalanuvchi og'riq eng ko'p uchraydigan shikoyatlardan biri bo'lib, 20% erta yoshdagi bolalari shunga shikoyat qilgan. Og'riq 5-15 yoshda, 8-10 yoshda kuprok paydo bo'ladi. Qiz bolalarda, o'g'il bolalarga nisbatan ko'proq uchraydi (5:3). Ko'p xollarda funksional oshqozon dispepsiyasidagi og'riqlar aniqlanmay qoladi[2,3].

Funksional dispepsiylar asosida alimentar sabablar yotadi: vaqtida ovqatlanmaslik, parxezni buzilishi, ko'p ovqat eyish, uglevodlarni, yoglarni ko'p iste'mol qilish. Dispeptik buzilishlarni asab faktorlari ham chaqirishi mumkin, yaqinlarni o'limi, ota-onani ajralishi, oilada ko'pol munosabat va xokazo. Oshqozon sekretsiyasining sutkalik ritmini alimentar sabablar va asab sabablari ham buzadi, bu esa gastrointestinal gormonlarni ko'p ishlab chiqarishiga olib keladi va HCl k-taning gipersekretsiyasiga olib keladi. Oxirgi yillarda infektsiya Helocobacter pyloriga alohida e'tibor beridi (50-70%). Ayniqsa N.R. infektsiyasi surunkali xelikobakter gastritga olib keladi. Oxirida bu Oshqozonni motor-evakuator funktsiyasini buzilishiga olib keladi va gastroparez rivojlanadi. Bundan tashkari dispeptik buzilishlarning sababi bu - oshqozon devorining sezuvchanligini pasayishi (50-90%) bemorlarda[4,6].

Funksional dispepsiada bemorlarda dispeptik shikoyatlarni paydo bo'lishi oshqozon ichak traktni, yuqori qismlarini motor funktsiyasini buzilishidan kelib chiqadi. Oshqozonni motor evakuator funktsiyasi «go'sht maydalag'ichni» eslatadi. Funksional dispepsiya asosida 12 barmoqli ichakni motorikasini buzilishi yotadi, shuningdek u Oshqozonni gormonal regulyatsiya funktsiyasini amalga oshiradi. Gastroduodenal motorikani buzilishiga, funksional dispepsiya aniklangan bemorlarga quyidagilar tegishli: gastroparez antroduodenal koordinatsiyaning buzilishi antral qismning motorikasini buzilishi oshqozon ichidagi ovqatni noto'g'ri taqsimlanishi oshqozon disritmiyalari duodenal reflyuks F.D. (funksional dispepsiylar) uchga bo'linadi[10].

Yaraga uxshash turida epigastral soxadagi og'riq. Og'riq saxarda, kechqurun, og'riqlar ovqatdan keyin tinadigan og'riqlar bo'lishi mumkin. Diskinetik turda – ko'rinning yuqori qismida nohush sezgi, ko'ngil aynash, kekirish, ishtahaning yo'qligi, oshqozondagi ogirlik sezgisi kuzatiladi. Agar quyidagi belgilari na 1 chisiga, na 2 chisiga to'g'ri kelsa unda nospetsifik funksional dispepsiylar haqida uylaymiz.

Funksional despepsiya - tashxisini aniq qo'yish uchun, bemorlarga FEGDSga ko'rsatma, Nr ni tekshirish, UTT (UZI) (qorin soxasini) gohida rentgenoskopiyaga yuboriladi. Motor funktsiyasini to'la tekshirish uchun elekrogastrografiya usuli qo'llaniladi. Funksional despepsiylarga 3 xil xolat tegishli. Og'riq, noxush sezgi, (qorinni yuqori qismida). Organik kasallikkarni yo'qligi, anamnezni aniqligi, oshqozon ichak traktini (OIT) ning endoskopik tekshiruvi. Funksional despepsiylar hamda defekatsiyalar o'rtasida bog'liqlik yo'qligi[9].

Funktional dispepsiyalarga tegishli emas: kechasi og'riqdan uyg'onish og'riq paytida o'rini g'alati tutish anoreksiya yoki qudish, qabziyat yoki ich ketish o'sishdan orqada qolish varaja yoki bo'gimlarda og'riq yara kasalligi bo'yicha taxmin tez-tez bir xil turdag'i og'riqlar. Funktsional dispepsiyalarga tegishli: og'riqlar doimo tez-tez emas kechasi og'riqlar yo'q boshqa shikoyatlar (bosh og'rig'i, tez charchash, bo'shashish, rangparlik, yurakni tez urishi) bemor tomondan, juda qattiq og'riqlar oilada asab buzilishi bemorni va ota-onani o'zlarini yuqori qo'yishi parxezni noto'gri tutish.

### Aerofagiya

Aerofagiya - bemorning ko'p mikdorda havoni yutishi, bu esa tez-tez kekirishga olib keladi. Havoni yutish odatda bolani ovqatlantirganda kechadi va bu qizganib emadigan bolalarda kechadi. Agar onani suti kam bo'lsa, ko'krakni so'rg'ichi, yoki so'rg'ich teshigi katta bo'lsa, bola ko'p miqdorda havoni yutishi natijasida aerofagiya kelib chiqadi. Aerofagiyali bolalar ovqatlangandan keyin notinch bo'ladi. Ularda epigastral soxasini shishgani va perkussiyada kuticha tovush eshitiladi, ovqatlangandan keyin (10-15 min) dan kekirish kuzatiladi. Korin bushligining rentgenida Oshqozonni gazli pufagini kurish mumkin[6,7].

Aerofagiyada - asosiy masala ovqatlantirish texnikasini me'yorlashtirish. Bemor bolalarni uxlatishga yotQizganimizda boshini baland kuyishimiz kerak. Katta yoshdag'i

bolalar ovqatni sekin-sekin, tinch muxitda ovqatlanishi kerak.

### Funktional qudish

Bolalar funktsional buzilishlar ichida MKBYuni kelishuviga asoslanib, quyidagilarga bo'linadi:

- ✓ Funktsional qudish
- ✓ Regurgitatsiya
- ✓ Ruminatsiya

Qusish - oshqozondagi massani irodaga bo'yinsinmagan holda tez tashlash, bunda oshqozonni nafaqat sillik muskullari, balki ko'ndalang muskullar ham qisqaradi.

Regurgitatsiya (kekirish) - ovqatni oshqozondan qizilo'ngachga va og'iz bo'shlig'iga

kaytib tushishi.

Ruminatsiya - ovqatni qudish - qizilo'ngachdan og'iz bo'shligiga ovqatni tushishi.

Funktional qudishni asosida 1 oylik bolalarni kekirish mexanizmi etadi.

1. yutinish koordinatsiyasini va qizilo'ngach peristaltikasini buzilishi
2. salivatsiyani pastligi
3. oshqozon va ichaklarni peristaltikasini etishmasligi
4. oshqozon evakuatsiyasini sekinlashuvi

5. oshqozonni chuzilishi
6. pilorospazm

Tekshiruv usullaridan: FEGDS, rentgenoskopiya, UZI, neyrosonografiya. Funktsional kekirish va quishni davosi boskichlari[4,5].

Quyuqlashgan aralashmalar: Frisli, Nutrilon-antireflyuks. Parallel sedativ preparatlar,

spazmolitiklar buyuriladi: xolinolitik riabal 0,4 ml (2mg) 3 maxal ovqatdan 15-30 min

oldin. Mikstura Marfan: natriya bromid i nastoyka valeriani po 2 g.

Spazmolitik kokteyllar - neyroleptiki parenteralno: 0,4 ml 2,5% eritma aminazini pipolfen 1 ml dan 0,25 eritma, droperidol 1 ml, 0,25, novokain 100 ml[3].

**Xulosa.** Shunday qilib, funktsional dispepsiya, aerofagiya va funktsional quish rivojlanishi uchun turtki bo'ladigan omillar deb quyidagilarni ajratib ko'satish mumkin: chaqaloq vaznining o'rtacha vazndan oshishi, homiladorlikning asoratlari, erta tug'ilish, otaning yoshini ancha oshganligi, onaning urogenital mikroflorasining patologiyasi va shuningdek, u yoki bu sabablarga ko'ra kesarcha bilan tug'ilish va homiladorlik soni tug'ruqlar sonidan oshib ketishi va hk.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nelson textbook of pediatrics. — 20 th ed. / [edited by] Robert M. Kliegman ... [et al.]. USA, 2015. 5041 s.
2. Richard E. Berman, Robert M. Kligman.. Pediatriya po Nel'sonu. 19 izdanie. Moskva. T1-5. 2011 god
3. Ежова Н. В., Е. М. Русакова, Г. И. Кащеева. – Педиатрия : учебник / 8-е изд., испр. – Минск : Вышэйшая школа, 2014. – 639 с.: ил. ISBN 978-985-06-2388-1.
4. Drannik G.N. Klinicheskaya immunologiya i allergologiya M., ООО Meditsinskoe informatsionnoe agenstvo», 2003, s.392
5. Temirov Murodjon Telmon o'g'li. (2022). Erta yoshdagi bolalarda oshqozonichak trakti funksional buzilishlarining shakllanish prediktorlari. Eurasian journal of medical and natural sciences, 2(12), 346–348. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7402778>
6. Даминов Т.О., Холматова Б.Т., Бобоева У.Р. Детские болезни. - Т., 2013
7. Детские болезни, под ред. Н П. Шабалова. – М., 2010
8. Rasulova S.X. Current Opinions on Etiopathogenesis, Clinical Picture,Diagnosis and Treatment of Irritable Bowel Syndrome. European journal of life safety and stability (ejlss) ISSN 2660-9630Volume 13, 2022  
<http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/408>
9. Даминов Т.О., Холматова Б.Т., Бобоева Ў.Р. Болалар касалликлари.-Т., 2012.
10. Детские болезни, под ред. А.А. Баранова. – М., 2010